Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
<i>Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna</i>	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
<i>Ибрагимова З. И.</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rni	725
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari	730
<i>Xaitova E'zozaxon Baxrom qizi</i>	
Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari	734
<i>Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nutq o'stirish faoliyatining o'rni	737
<i>Toshpulatova Nargiza Abduraimovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
<i>Bo'riyeva Fayyoz Baxodirovna</i>	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
<i>Jurayeva Umida Yuldashevna</i>	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi	748
<i>Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna</i>	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
<i>Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Abdurahmon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
<i>Pardaeva Matonat Salimovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
<i>Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi</i>	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni	772
<i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
<i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
<i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
<i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
<i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>	
Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации	788
<i>Амануллаева Камола Муминовна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
Djamolova Noila Zayniddinovna	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
G'afforova Hurriyat Yangiboyevna	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
Jalolova Feruza Mirkamol qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
Jumayeva Malika Aliyevna	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
Karimova Shoxsanam Islomovna	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
Karimova Zarrina	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
Maryam Raximova	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
Nutfiyeva Dildora	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
O'tasheva Lola Shoto'rayevna	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
Kadirova Sayyora Madaminovna	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
Najmiddinova Murat Kamolovich	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat	908
<i>Zakirova Difuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
<i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	



TAYYORLOV GURUH BOLALARINI KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

G'afforova Hurriyat Yangiboyevna

Termiz davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil etiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik hamda psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: STEAM, innovatsiya, tayyorlov guruhi, kreativ qobiliyatlar, zamonaviy texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the significance of innovative approaches to the development of creative abilities in children of the preparatory group. Pedagogical and psychological aspects of the formation and development of creative thinking in the modern education system are examined.

Key words: STEAM, innovation, preparatory group, creative abilities, modern technologies.

Аннотация: В данной статье анализируется значение инновационных подходов к развитию творческих способностей детей подготовительной группы. Рассмотрены педагогические и психологические аспекты формирования и развития творческого мышления в современной системе образования.

Ключевые слова: STEAM, инновации, подготовительная группа, творческие способности, современные технологии.

KIRISH

Zamonaviy dunyo tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda insonlardan faqatgina an'anaviy bilim va ko'nikmalar emas, balki yangicha fikrlash, muammolarni innovatsion yondashuvlar orqali hal qilish qobiliyati talab etilmoqda. Bugungi kunda jamiyatning har bir sohasi ijodiy va kreativ fikrlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylandi.

Kreativlik – bu oddiy bilimlarni egallashdan tashqari, mavjud muammolarga o'ziga xos, noodatiy va samarali yechim topish qobiliyatidir. Bolalarda bunday qobiliyatlarni rivojlantirish esa o'qituvchilarning yangicha metodlarga asoslangan, innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishiga bog'liq. An'anaviy yondashuvlar maktabga tayyorlov guruhi bolalarini faqat bilim olishga yo'naltirsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar ularga mustaqil fikrlash, yangi g'oyalarni ilgari surish va ijodiy yondashish imkoniyatini beradi.

Bugungi ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirishning turli xil samarali usullari mavjud. Jumladan, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy ishlar va raqamli texnologiyalar maktabga tayyorlov guruhi bolalarining mustaqil tafakkur qilishiga, o'z g'oyalarni ilgari surishiga hamda innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Afsuski, hali ham ayrim maktab va ta'lim muassasalarida an'anaviy yondashuvlarga ortiqcha tayanish kuzatilmoqda. Shu sababli, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rag'batlantirish, yangicha pedagogik usullarni qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi, kreativ fikrlashni shakllantirish usullari va pedagogik innovatsiyalar orqali o'quv jarayonini takomillashtirish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Axir, kelajak jamiyati kreativ fikrlovchi avlod qo'lida ekan, bugun biz ta'limda yangilik va innovatsiyalarni joriy etish orqali ertangi kunni shakllantiramiz.



Bugungi kunda ta'lim sohasida kreativlikni rivojlantirish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. An'anaviy yondashuvlar o'quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim texnologiyalari ularning mustaqil fikrlash, muammolarga yechim topish va ijodiy yondashish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Shunday ekan, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Ta'limda kreativlikni rag'batlantirishning eng samarali yo'llaridan biri – interfaol metodlardan foydalanishdir. Masalan, muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga standart yondashuvlardan voz kechib, mustaqil izlanish va innovatsion fikrlash imkoniyatini beradi. O'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu bilan birga, loyiha asosida ta'lim berish ham kreativlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar guruh bo'lib ishlash orqali bir-birlarining fikrlarini tinglaydi, yangi g'oyalar ishlab chiqadi va o'z loyihalarini taqdim etish orqali ijodiy tafakkurlarini rivojlantiradilar.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar kreativ fikrlashni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt bilan ishlash, gamifikatsiya (o'quv jarayonini o'yin orqali tashkil etish) kabi innovatsion metodlar maktabga tayyorlov guruhi bolalarining qiziqishini oshirib, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Masalan, kod yozish, grafik dizayn yaratish yoki virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlaydi va yangi g'oyalarni ilgari suradi.

Shu bilan birga, o'qituvchilarning o'zlari ham kreativ fikrlashga ega bo'lishlari, yangilikka ochiq bo'lishlari juda muhim. Agar pedagog an'anaviy o'qitish usullariga ortiqcha tayanib qolsa, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativlik qobiliyatlari cheklanib qolishi mumkin. O'qituvchilar nafaqat bilim beruvchilar, balki maktabga tayyorlov guruhi bolalarining ichki ijodiy salohiyatini ochib beruvchi ilhom manbai bo'lishlari kerak. Shuning uchun ham pedagoglarning doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi metodikalarni o'rganishi va bolalarga innovatsion yondashuvlarni taklif qilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Albatta, kreativlikni rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar ham uchraydi. Masalan, aksariyat maktablarda texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani yoki an'anaviy yondashuvlarga haddan tashqari e'tibor qaratilishi innovatsion metodlarni joriy etishda qiyinchilik tug'diradi. Shu boisdan, ta'lim tizimida yangi metodlarni ommalashtirish va ularni keng qo'llash uchun davlat va ta'lim muassasalari hamkorligida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish – nafaqat ta'lim tizimining, balki jamiyatning ham kelajagi uchun muhim vazifalardan biridir. Innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantirish ularning nafaqat akademik muvaffaqiyatlarini oshiradi, balki kelajakda hayotiy muammolarga kreativ yondashish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bugun biz ta'limda kreativlikni rivojlantirsak, ertangi kunda yangilik yaratishga qodir avlodni tarbiyalaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarni yig'ish va ularni ilmiy tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar asosan kuza-tish, suhbat va pedagogik tajribalar orqali to'plandi. Kuzatuv jarayonida bolalarning mashg'ulotlardagi ishtiroki, ijodiy topshiriqlarga bo'lgan qiziqishi va mustaqil fikrlash darajasi o'rganildi. Suhbatlar orqali o'qituvchilar va ota-onalarning fikrlari, ularning innovatsion texnologiyalarga munosabati ham tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan solishtirish, taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga doir ilmiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu masala ta'lim tizimida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kreativlik va ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng ko'lamda olib borilgan bo'lsa-da, bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim metodlari asosida yangicha qarashlar shakllanmoqda.

Kreativlik va uning ta'riflari. Tadqiqotchilar kreativlikni turlicha talqin qiladilar. Masalan, J. Gilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog'liq holda ko'rib chiqib, uning asosiy mezonlarini – original fikrlash, muammolarni turli xil yechimlar orqali hal qilish va moslashuvchan tafakkur sifatida belgilaydi. Shuningdek, E. de Bono kreativ tafakkurni lateral tafakkur bilan bog'lab, muammolarga noodatiy yondashish va innovatsion yechimlar topish jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvlar maktabga tayyorlov guruhi bolalarining nafaqat bilim olish, balki mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbek pedagogikasi va psixologiyasida ham kreativlik bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O. Musurmonova maktabga tayyorlov guruhi bolalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek,

G'. Yuldashev o'z tadqiqotlarida kreativlikni rivojlantirish uchun loyihaviy ta'lim va gamifikatsiya metodlarining samaradorligini yoritib bergan.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, bu jarayonda innovatsion pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Shunday ekan, kelajak avlodning kreativ salohiyatini oshirish uchun ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashtirilgan dunyoda maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biriga aylangan. An'anaviy o'qitish metodlari faqat tayyor bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar o'quvchilarga o'z mustaqil fikrlash qobiliyatlarini namoyon etish va yangilik yaratish imkoniyatini beradi. Shuning uchun kreativ fikrlashni shakllantirish nafaqat maktabga tayyorlov guruhi bolalarining individual rivojlanishiga, balki jamiyatning kelajakdagi intellektual va innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida shuni anglash mumkinki, kreativlik – bu tug'ma iste'dod emas, balki tarbiyalanadigan va rivojlantiriladigan qobiliyatdir. Agar o'qitish jarayoni innovatsion metodlar bilan boyitilsa, o'quvchilar yangi g'oyalar ishlab chiqish, muammolarni turli yo'llar bilan hal qilish va ijodiy yondashish qobiliyatlariga ega bo'ladilar. Buning uchun esa muammoli ta'lim, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va raqamli texnologiyalardan foydalanish zarur.

Shuningdek, o'qituvchilarning roli ham juda muhim. Ular o'quvchilarga faqat bilim beribgina qolmay, balki ularga ijodiy tafakkur qilish, o'z fikrini erkin ifoda etish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini yaratishlari lozim. Ijodiy muhit mavjud bo'lgan taqdirda, o'quvchilar o'z potensialini to'liq namoyon eta oladilar. Shu boisdan, o'qituvchilar doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishi va kreativlikni rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishi lozim.

Ammo haqiqat shuki, bu jarayonda qator muammolar ham mavjud. Masalan, ta'lim tizimida haligacha an'anaviy yondashuvlarga ortiqcha urg'u berilishi yoki zamonaviy texnologiyalarning yetarlicha qo'llanilmasligi kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoniga to'sq bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, o'qituvchilarni doimiy malaka oshirish kurslarida ishtirok etishga rag'batlantirish va kreativlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish lozim. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish – bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida kreativ fikrlashni shakllantirish mumkin. Kelajakda kreativ va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalash uchun biz hozirdan ta'lim jarayonida innovatsiyalarga keng yo'l ochishimiz kerak. Zero, bugungi bolalar – ertangi innovatorlar, olimlar va yetakchilardir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tayyorlov guruhidagi bolalarning kreativ (ijodiy) qobiliyatlarini rivojlantirish – ularning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omildir. Bugungi kunda bu jarayonni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim rol o'ynamoqda.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM yondashuvi, Montessori usuli, loyihaviy faoliyat, rolli o'yinlar kabi innovatsion yondashuvlar orqali bolalarning qiziqishi, ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

Ushbu texnologiyalar nafaqat bilim berish, balki har bir bolaning individual salohiyatini ochish, o'z fikrini erkin ifoda etishga imkon yaratadi. Shuningdek, guruhda ishlash, muammolarni hal etish, yangi g'oyalarni ilgari surish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda ham samaralidir.

Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish – kelajak avlodning ijodkor, mustaqil va raqobatbardosh shaxs sifatida voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'affarova H. Y. The First Step Is The Issue Of Educating Children Of Preschool Age In The State Program Based On Steam Educational Technology // Economy and Society. – 2023. – No. 11 (114)-1. – P. 122–125.
2. G'affarova H. Ya. The First Step Is The Issue Of Educating Children Of Preschool Age In The State Program Based On Steam Educational Technology // Economics and Society. – 2023. – No. 11 (114)-1. – P. 122–125.



3. G'affarova H. Y. (2023). The First Step Is The Issue Of Educating Children Of Preschool Age In The State Program Based On Steam Educational Technology // Economics and Society. – 2023. – No. 11 (114)-1. – P. 122–125.
4. Choriyeвна C. S. Education and education of pre-school children on the basis of STEAM educational technology. – 2023.
5. Choriyeвна C. S. Main directions of teacher training and improving their quality for the preschool education system // Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – № 5. – P. 51–54.
6. Choriyeвна C. S. Ways to develop mental abilities in preschool children // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 15. – P. 174–177.
7. Choriyeва S. C. Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili // Educational Research in Universal Sciences.
8. Choriyeвна C. S. et al. A model for improving the system of preparing students for pedagogical activity on the base of educational values // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – T. 3. – № 6 (International Scientific Researcher). – P. 283–285; 2023. – T. 2. – № 9 (Special). – P. 99–102.
9. Чориева С. Ч. и др. Игра как ведущая деятельность ребенка дошкольного возраста // Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 48. – P. 138–140.
10. Чориева С. Ч. Умение учителя использовать современные образовательные технологии при подготовке учащихся к педагогической деятельности на основе образовательных ценностей // Экономика и социум. – 2024. – № 10-2 (125). – P. 998–1001.
11. Choriyeва S. C. Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish tizimi // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 4 (Special). – P. 1177–1181.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.